

## BADIIY TARJIMANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Ziyoda ALIYEVA*

*O'zDJTU talabasi*

*Tarjima - san'at,*

*Tarjimon esa, ijodkordir.*

Qadim zamonlardan insoniyato'z ustida ishlashga, dunyoqarashini kengaytirishga, turmush tarzini yaxshilashga va bilim salohiyatini rivojlantirishga harakat qilib kelgan. Bu omillar uni doimo harakatda bo'lishga undagan. Va o'z navbatida, inson qimmatli bilim-ko'nikmalarini, mashaqqatli hayotini, ichki kechinmalarini, olam haqidagi tasavvurini kelgusi avlod anglashi va hayoti davomida undan foydalanishi uchun qo'lyozmalar, qoyatosh va devoriy suratlar orqali meros qilib qoldirgan. Anglaganingizdek, biz bu bebaho merosni kitoblar orqali o'qib o'rganamiz. Ammo bir muammo mavjud. Har kim bu merosni o'zicha o'qib o'rganolmaydi. Sababi, odamzod Yer kurrasining turli burchaklarida istiqomat qiladi. Ularni umumiy "INSON" degan nom birlashtirib tursada, turli hududlarda yashovchi, turli insonlarni turli tafovutlari ham bor. Ushbu tafovutlardan eng asosiysi TILdir. Biz o'zbekmiz, turkiyzabonmiz va O'zbekistonda yashaymiz. Ammo ko'hna Yunonistonda yashab grek tilida ijod qilgan Aristotel haqida qayerdan bildik? O'sha kitoblar orqali, aniqrog'i, mehnatkash va jonkuyar TARJIMONning mashaqqatli mehnati orqali. O'sha tarjimonlar bo'lmaganida edi, biz Suqrotning donishmandligi-yu, Konfutsiyning hikmatli so'zlaridan bahramand bo'la olmasdik. Chunki biz tilni bilmaymiz. Tarjimon esa o'sha buyuk olim va mutafakkirlarning kitoblarini bizga tushunarli bo'lishi uchun o'zga tildan bizning ona tilimizga moslashtirib, aniq va sodda qilib berdi.

Tarjima adabiy va o'zaro ta'sirining eng faol, eng ommalashgan va eng mahsuldor formasidir. Tarjima donolik ilmidir. Tarjima uzoqni yaqin, o'zgani birodar, tanishni qadedon, do'stni qarindosh qiladi. Ayni paytda tarjima san'at, san'atning oddiy turlaridan emas, tarjima sehrgarlik san'atidir. Tarjima ijod ahli uchun darsxona. Shuning uchun jahon adabiyoti tarixida uning boyishi, yangi- yangi asarlar evaziga mazmundor bo'lishida tarjima va tarjimonlarning ulushi benihoya salmoqli.

Ko'ngillararo ko'prik vazifasini o'tayotgan tarjima adabiy aloqa va ta'sir tarixida nurli sahifalarni tashkil etadi. Necha yuz yillar davomida tarjima tufayli bir adabiyotda paydo bo'lgan asar jahon kezadi va odamlarga estetik zavq bag'ishlaydi.

Tarjimonlikning paydo bo'lishi ham ushbu holat bilan bog'liq, ya'ni hamma ham o'zga tilni bilavermaydi va tilni o'zganish uchun shart-sharoitlar har kimda ham yetarli emas. Bu vaqtda ular tarjimonga muhtojdirlar.

Nazariy jihatdan yozma tarjimonlik ikkiga bo'linadi: adabiy va adabiy bo'lmagan. Oddiy inson hayotida adabiy tarjima ko'proq ahamiyatga ega. Chunki biz ilmiy-aniq bilimlarni o'rganishdan, hayotimizni qamrab olgan mehnatdan charchagan paytimizda adabiyotga murojaat qilamiz. Bo'sh vaqtlarimizda badiiy asarlarni mutolaa qilish yoxud mashhur kitoblarga asoslangan filmlarni tomosha qilish orqali biz o'zimizni qayta tiklaymiz, miyalarimizga dam beramiz. Tarjimalar xalqlar o'rtasida ma'rifat tarqatish vositasi hisoblanadi. Badiiy tarjimalarni ko'rish, eshitish, yoki o'qish rohatlanish bilan bir qatorda, ma'naviy ozuqa ham beradi.

Ilmiy tarjimalardan farqli o'laroq badiiy tarjimalar ancha murakkabdir. Chunki ilmiy asarlarda aniqlik va soddalik asosida o'z sohasiga doir qoliqlangan so'zlardan foydalaniladi. Badiiy asarlarni chegaralab bo'lmaydi. Sababi adabiyot bo'yoqdorlikdan, hissiyotlardan, ichki kechinmalardan, oddiy inson so'z bilan tushuntirib berolmaydigan tuyg'ulardan iborat.

Badiiy tarjimaning asosiy xususiyati tilning badiiy vazifasidan kelib chiqadi. Til badiiy asarda estetik hodisa, san'at faktiga aylanadi. Adabiy asar tili- alohida "badiiy voqelik" unsuridir. Tarjimada ana shu obrazli ifodaviy tildagi badiiy ma'noni boshqa tilning obrazli ifodaviy zaminiga o'tkazish, obrazni obraz bilan qayta ifodalash jarayoni yuz beradi. Shuning uchun tarjimon asardagi voqealarning badiiy tafakkur jarayonini yangidan idrok etadi. Zamonaviy tarjima asosan tarjimon asliyatning san'at asari sifatida shakl va mazmunni qayta yaratishi, milliy va individual xususiyatlarini saqlashi lozim. Tarjimon ona tilining rivojlanish darajasi, tarjimachilik an'analari, tajribalarga suyanadi. Turli xil tafovitlar borligini hisobga oladi. Tarjimonning ijodiy qobiliyati va bilimi uning imkoniyatlarini kengaytiradi. Tarjima jarayonida tarjimon hammavaqt o'z ona tilida fikrlaydi. Ona tili unga tahll quroli, sinov mezoni bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Nizomiyning "Xisrav va Shirin"

dostonini o'g'irgan Qutb (“...Nizomiy bolidan holva pishurdim...”) tarjima nusxa ko'chirish kabi bir ish bo'lmay, ijodiy jarayon ekanini, tarjimon esa boldan holva pirishuvchi mohir yozuvchi bo'lishi kerakligini aytadi. Turli davrlarda muayyan hududdagi adabiy muhit, ayniqsa, maxsus tarjima maktablarining yuzaga kelganligining o'ziyoq uning shakllangan tamoyillari, an'analari bo'lganligini ko'rsatadi.

Tarjima nusxa ko'chirish emas, tarjimonning estetik ehtiyoji uning ixtiyoridan tashqarida, tarjimada iz qoldiradi. Yozuvchi hayot voqealaridan olgan mushohadalarini tilda badiiy ifodalasa, tarjimon asl matnini yangi til vositasida qayta gavladantiradi. Buning uchun u asarda tilga olingan viqelikning muallif darajasida puxta bilishi kerak. Har bir xalq adabiyotining rivojlanishida Tarjimachilikning ta'siri katta bo'ladi. Zaro, tarjima tarixi adabiyot tarixi bilan tengdosh. O'zbek adabiyotida ham tarjimachilik qadimdan rivojlangan, Mahmud Qoshg'ariy, Rabg'uziy, Navoiy va Bobur, boshqalar ijodida tarjima katta o'rin egallaydi.

XX asrda o'zbek yozuvchilaridan Cho'lpon, G'afur G'ulom, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov va boshqalar tarjima sohasida samarali ijod qilganlar. Ayniqsa, Erkin Vohidovning Geotening “Faust” asarini tarjima qilgani yuksak e'tiborga loyiq.

Badiiy tarjimaning yana bir o'ziga xosligi hamda murakkabligi she'riy tarjimada yaqqol aks etadi. Rossiyalik tarjimashunos olimi T.A.Kazakova o'zining “Badiiy tarjima bo'yicha praktikum” o'quv qo'llanmasida shunday deydi: “Tarjimon she'ri tarjima qilganda uning shakliga qarab ikki asosiy kategoriyadan birini tanlashiga to'g'ri keladi. Shulardan biri erkin she'r, boshqasi esa klassik ko'rinishga ega bo'lgan she'r. shuning uchun ham she'r o'zgarmas she'r vazni, ritm hamda turoqqa ega bo'ladi.” An'anaviy she'r ko'proq hissiyotga ega. Quyidagi she'ri o'zbek tilidagi bevosita tarjimasini bilan muqoyasa qilib ko'ramiz:

### ***Ae Fond Kiss***

Ae fond kiss, and then we sever,  
Ae fareweel, and then for ever!  
Deep in heart-wrung tears I'll pledge thee,  
Warring sighs and groans I'll wage thee...

Had we never lov'd sae kindly,  
Had we never lov'd sae blindly!  
Never met-or never parted,  
We had ne'er been broken-hearted.

*So'nggi bo'sa*

Astagina o'pishdik giryon,  
Ayti tushdi yo'llar har tomon!  
Vidolashdik garchi pichirlab,  
Faryod soldi yurak qon yig'lab.

Oh qaydanam ko'rishdik bizlar,  
Oh qaydanam sevishdik bizlar!  
Sevmasaydik bunchalar intiq,  
Abgor etasmidi ayriliq...

Ushbu she'r tarjimasida tarjimonning asarni ijodkor sifatida katta ehtiros bilan sevganini, shoirning fikr-o'ylari, ifoda uslublari, she'rning maromi, ohangini butun vujudi bilan his eta olganini yaqqol namoyon etib turibdi. She'rning qofiyalash tartibi uning tarjimasida ham asliyatdagidek boshdan oxirigacha bir xil aa,bbshaklda aks etgan. Shotland shoiri Broynsning ruhiy holati, qalb istiroblarini o'zbek tarjimoni Begoyim Xolbekova o'z ona tilimizga yuksak poetik mahorat bilan yarata olgan. Buni quyidagi misralarda yanada aniqroq ko'rish mumkin, ya'ni asliyatdagi quyidagi “Hech qachon ko'rishmaganimizda, bunchalik mehr bilan sevishmaganimizda, ayrilmaganimizda, yuraklarimiz bunchalik siniq bo'lmasmidi” degan mazmun o'zbek tilida asliyatga mos ichki dard bilan ifoda etilgan.

Internet manbalari orqali ilmiy yoki siyosiy matnlarni avtomat tarzda tarjima qilishingiz mumkin, ammo badiiy asarlarni yuksak rivojlangan avtomat-tarjimon mashinalar ham tarjima qilolmaydilar. Chunki ular adabiy kitoblarni tarjima qilishlari uchun ulkan qalb, cheksiz muhabbat, va og'riqli dardga ega emaslar. Badiiy tarjimon bo'lish uchun esa, yuqoridagi uch unsurga ega bo'lish kerak. Bular uning boshqalaridan ajratib turadigan, noyob o'ziga xosligidir.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. VALIYEVA, NARGIZAXON. "Анализ стилистических средств в переводе произведения Александра Файнберга «Город милый. Голубая бездна» с русского на английский язык." Scienceweb academic papers collection (2022).